

**JIZZAX VILOYAT XALQ TA'LIMI
XODIMLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH
HUDUDIY MARKAZI
TOMONIDAN TAYYORLANGAN**

**Mavzu: Axborot – kutubxona
resurslarini butlash, kataloglashtirish
va tizimlashtirish. ARMda zamonaviy
axborot - kommunikatsiya
texnologiyalarini joriy qilish.**

II-qism. Axborot – kutubxona resurslarini kataloglashtirish jarayoni

REJA:

- 1.Kataloglashtirishning me'yoriy xujjatlar asosida ishni tashkil etish.**
- 2.Kataloglashtirish jarayonida bibliografik yozuvning yaratilishi.**
- 3.Kataloglashtirish jarayonida tinish belgilari.**

1.Kataloglashtirishning me'yoriy xujjatlar asosida ishni tashkil etish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 13 apreldagi "Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risidagi" 280-sonli Qonuni kutubxona soxasida asosiy hujjat hisoblanadi.



Ushbu Qonun asosida axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonun Respublikadagi kutubxona tizimlarini asosiy vazifalarini, yo'nalishlarini belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.03.2012 yildagi PQ-1729-son “Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi-axborot resurs markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida **“Kataloglashtirish qoidalarini”** davlat standartini ishlab chiqish haqida dasturda alohida punktlarda belgilab qo‘yilgan. Dasturga muvofiq xalqaro qoidalardan kelib chiqqan holda (kataloglar yaratishda) axborot –kutubxona resurslari qidiruv tizimlarini takomillashtirishda **“Kataloglashtirish qoidalarini”dan** foydalangan holda ish yuritish maqsad qilib olingan. Ushbu standart axborot-kutubxona resurslarining barcha turlarini kataloglashtirishga qo‘yiladigan yagona talablarni belgilab beradi.

Standart axborot-kutubxona muassasalari, ilmiy-texnik axborot organlari, davlat bibliografiya markazlari, nashriyotlar, boshqa bibliografiya qiluvchi muassasalarda ishlab chiqariladigan axborot-kutubxona resurslarini kataloglashtirishga taalluqlidir.

O‘z DSt 3053:2016 O‘zbekiston Respublikasining Davlat Standarti “Axborot, kutubxona va nashriyotchilik ishi bo‘yicha standartlar tizimi. Axborot-kutubxona resurslari. Kataloglashtirish qoidalarini”.

Axborot-kutubxona resurslari



kataloglashtirish

Bibliografik yozuv

Нивен, Ларри.

Осколок империи: [Сборник] / Ларри Нивен; [Пер. с англ. С. Мирюлюбов и др.; Худож. А. Куташов]. -- СПб.: Северо-Запад, 1994. -- 637, [2] с.: ил.; 22 см.

Содерж.: Подарок с Земли: Роман; Рассказы: Бег иноходца; Левнафел; Спидя в руке; Волк в машине времени; Смерть в камере; Безумная толпа; Тайна стеклянного книжала; Нейтронная звезда; Осколок империи, и др.
ISBN 5-8352-0352-7 (в пер.): Б. ц., 20000 экз.

-- I. Научно-фантастические романы и рассказы (к.л.).

№ 317
55 № 23 № 67 [94-31074] п. оф.
© Рос.кн.палата 11.01.95 Н601
Изд-во «Книжная палата»

УДК 820(73)-31Нивен
ББК 84(7СПА)



2. Kataloglashtirish jarayonida bibliografik yozuvning yaratilishi.





Axborot-kutubxona resurslari uchun ularni kataloglashtirish jarayonida hujjat - yozuv ob'yekti to'g'risidagi uni bibliografik qidirish maqsadida identifikasiya qilish, uning tarkibi va mazmunini ochib berish imkonini beradigan, ma'lumotlarni qayd qiluvchi bibliografik axborotni o'z ichiga olgan bibliografik yozuv yaratiladi.



Bibliografik yozuv tarkibiga zaruratga ko'ra sarlavha, indekslash atamaları (tasniflash indeksleri va predmet rubrikalari), hujjatni saqlash shifri, annotasiya (referat), boshqa bibliografik yozuvlar bilan bog'liqliklari to'g'risidagi ma'lumotlar va undan foydalanishni ta'minlovchi hujjat to'g'risidagi boshqa qo'shimcha axborot bilan to'ldiriluvchi bibliografik tavsif kiradi.

Bibliografik yozuvni tuzish uchun quyidagilar asosiy axborot manbai hisoblanadi



- titul varag'i va uning turlari (jumladan birlashtirilgan titul varag'i);

- gazetaning birinchi va oxirgi sahifasi;

- karta tituli (karta varag'ining yuqori, quyi va yon maydonlari);

- magnitli fonogramma, gramplastinka etiketkasi, kinofilm, diafilm, diapozitiv, videoyozuv, kompakt-disk titrlari;

- elektron resurs titul ekrani, asosiy menyu, dastur to'g'risidagi ma'lumotlar, fayl nomi, uy sahifasi;

- tasvirli nashrning old va (yoki) orqa tomoni;

- hujjat tarkibiy qismi matnining birinchi va oxirgi sahifalari.

Bibliografik yozuv

Bibliografik tavsif

Kitob saqlash
shifri

54.15

G13

Sarlavha

Gadayev, Abdig'affor.

Qandli diabet to'g'risida nimalar bilish kerak? [Matn] : sog'lomga ham, bemorga ham birdek zarur qo'llanma / A. Gadayev, N. Sodiqova ; mas'ul muharrir A. Iskandar. – Toshkent : Turon zamin ziyo, 2014. – 44 b. - 2000 nusxa – ISBN 978-9943-335-53-0. – (Salomatlik saboqlari).

Abdig'affor Gadayev rahbarligida tayyorlangan tibbiy-ommabop kitoblar turkumiga oid navbatdagi – qandli diabet kasalligiga bag'ishlangan risolani nashr etmoqda. Mazkur qo'llanma bilan tanishib, unda bayon etilgan tavsiyalarni bajarganingizda, Siz qandli diabet kasalligi yoki uning og'ir asoratlari oldini olish imkoniyatiga ega bo'lasiz.

KBK 54.15

1. Tibbiyot - endokrin sistemasi kasalligi. 2. Endokrinologiya- modda almashinuvi kasalliklari.

I. Sodiqova, Nigora (muallifdosh). II. Iskandar, A. (muharrir).

annotasiya

Qo'shimcha bibliogr.
yozuvlar to'g'risida
axborot

Indekslash termini

Bibliografik tavsif tarkibiga quyidagi sohalar kiradi:

1 Sarlavha va javobgarlik to'g'risidagi ma'lumotlar sohasi

2 Nashr sohasi

3 Hujjatning o'ziga xos ma'lumotlar sohasi

4 Chiqish ma'lumotlari sohasi

8 Standart raqami (yoki uning muqobili) va foydalanish shartlari sohasi

7 Izohlar sohasi

6 Seriya sohasi

5 Fizik xarakteristika sohasi

Bibliografik tavsifning tarkibi

1 sarlavha va javobgarlik to'g'risidagi ma'lumotlar sohasi

3 hujjatning o'ziga xos ma'lumotlar sohasi

O'zbekistonning zamonaviy arxitektura landshaft san'ati [Elektron resursi] / San'atshunoslik instituti. –

2 nashr sohasi

2-nashr. – Elektron ma'lumotlar va dasturlar. – Toshkent :

San'at, 2012. – 1 elektron optik disk(CD-ROM) : товуш., ранг.

– (Elektron kitob). – Tizim talabi: Windows 2000/XR ;

videokarta, tovush. karta ; CD ROM. – Sarlavha disk

etiketkasidan olingan. – ISBN: 978-9943-388-40-6.

6 seriya sohasi

7 izohlar sohasi

5 fizik xarakteristika sohasi

4 chiqish ma'lumotlari sohasi

8 standart raqami (yoki uning muqobili) va foydalanish shartlari sohasi

3.Kataloglashtirish jarayonida tinish belgilari.

Bibliografik tavsifda tinish belgilari ikki vazifani-oddiy grammatik tinish belgilari va oldindan belgilangan tinish belgilari, ya'ni bibliografik tavsif sohalari va elementlari uchun tanituvchi xususiyatga ega bo'lgan belgilar vazifasini bajaradi, belgilangan tinish belgilari (shartli ajratish belgilari) turli tillarda nashr qilingan an'anaviy va mashinada o'qiladigan kataloglashtirish shakllaridagi yozuvlar - bosma kartochkada, bibliografik ko'rsatkichlarda, ro'yxatlarda, kompyuter monitori ekranida va h. k.lardagi tavsifning alohida elementlarini farqlashga yordam beradi. Belgilangan tinish belgilari sohalari va elementlar oldida yoki ularning oxirida beriladi. Ularning qo'llanilishi til me'yori bilan bog'liq emas.

Tinish belgilari va matematik belgilar belgilangan tinish belgilari sifatida keladi:

.-

nuqta va tire

.

nuqta

,

vergul

:

ikki nuqta

;

nuqta vergul
bilan

...

ko'p nuqta

/

qiya chiziq

//

ikki qiya chiziq

()

dumaloq qavslar

[]

kvadrat qavslar

+

qo'shuv belgisi

=

tenglik belgisi

Tinish belgilari va matematik belgilar belgilangan tinish belgilari sifatida keladi

Dal, Vladimir Ivanovich.

Tolkoviy slovar jivogo velikorussskogo yazika Vladimira Dalya
[Elektronniy resurs] : podgot. po 2-mu pech. izd. 1880–1882 gg .
/ MediaBook ; red. I.P. Ivanova. – 2-oye izd., isp. i dop. –
Elektron. dan. i programma. – M. : ACT, 1998. – 1 elektron. opt.
disk (CD-ROM) : zv., sv. – (Elektronnaya kniga). – Sistem.
trebovaniya: Windows 95/98. – Zagl. s etiketki diska. – ISBN :
5-8645-5061-2

Axborot-kutubxona resurslari uchun tuzilgan bibliografik yozuvlarga misollar

Tohirov, Farhod.

Shaxsga qarshi jinoyatlar va ularning yuridik tahlili [Matn] : o'quv qo'llanma / F. Tohirov ; mas'ul muharrir : H. Boboyev, M. Rustamboyev. – Toshkent : Yangi asr avlodi, 2001. – 144 b. ; 21 sm. – (Shaxsning huquqiy himoyasi). – Bibliogr. : b. 140–144. – 1000 nusxa. – ISBN 978-9-94-306075-3 (muqovada).

Bitta muallifi ko'rsatilgan bir tomli nashrlar

Personalni boshqarish [Matn] : o'quv qo'llanma / B. A. Abduraxmonov [va boshq.] ; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent davlat iktisodiyot universiteti. – Toshkent : Sharq, 2008. – 272 b. ; 20 sm. – 200 nusxa.

To'rtta va undan ko'p muallifi ko'rsatilgan bir tomli nashrlar

Mualliflari ko'rsatilmagan bir
tomli nashrlar


Limon-barcha kasalliklarga davol [Matn] / tuzuvchi D. Zunnunova ; muharrir U. Urunov. – Toshkent : Davr Press, 2008. – 40 b. ; 20 sm. – (Dorivor o'simliklar). – 5000 nusxa. – ISBN 978-9-94-331260-9.

Doimiy tashkilot nomidan
chiqarilgan kitoblar

O'zbekiston Respublikasi bank kengashi.

Respublika bank kengashi faoliyati yuzasidan hujjatlar to'plami [Matn] = Sbornik dokumentov po deyatelnosti respublikanskogo bankovskogo soveta. – Toshkent : O'zbekiston, 2003. – 96 b. ; 19 sm. – ISBN 978-9403-310-60-9.

Ko'p tomlik hujjatning ko'rinishi



Navoiy, Alisher.

To'la asarlar to'plami [Matn] : 10 jildlik / A. Navoiy ; muharrir S. Rafiddinov. - Toshkent : Adabiyot uchqunlari, 2011 –

J. 1 : Xazoyin ul-maoniy. G'aroyib us-sig'ar. - 2011. - 804 b. - ISBN 978-9943-03-349-8 (muqovada) : 35000 so'm.

J. 2 : Xazoyin ul-maoniy. Navodir ush-shabob. - 2012. - 772 b. - 3000 nusxa. - ISBN 978-9943-03-365-8 (muqovada) : 35500 so'm.

**Mavzu: Axborot – kutubxona
resurslarini butlash, kataloglashtirish
va tizimlashtirish. ARMda zamonaviy
axborot - kommunikatsiya
texnologiyalarini joriy qilish.**

E'tiboringiz uchun rahmat !